



**SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR



2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi


So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024-yil 1-oktabr holatiga Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 41 302 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 35 203 ta.

Shuningdek, ushbu davrga 62 998 ta korxona ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,7 foizni tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar soni to'g'risida umumiy ma'lumotlar

(1-oktabr holatiga)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2024-yil yanvar-sentabr holatiga)


2024-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 5 735 tani tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha eng ko'p tashkil etilgan korxona va tashkilotlar quyidagicha: Samarqand shahrida (1 421 ta), Samarqand (845 ta) va Pastdarg'om (442 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni savdo – 2 013 ta, sanoat – 883 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari sohasida – 672 ta va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 603 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024-yil 1-oktabr holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2024-yil 1-oktabr holatiga 41 302 tani tashkil etdi, ulardan 35 413 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,2 foiz, sanoat – 13,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 6,0 foiz, qurilish – 5,5 foiz, hududlar kesimida esa eng ko'pi Samarqand shahrida – 28,4 foiz, tumanlardan Samarqand – 8,3 foiz, Urgut – 7,9 foiz, Pastdarg'om – 7,2 foiz va Kattaqo'rg'on tumanida – 5,0 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024-yil yanvar-sentabr holatiga)


Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2024-yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 5 607 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 5 582 ta;
- Yirik korxonalar 25 tani tashkil etdi.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)




(2024-yil 1-oktabr holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024-yil 1-oktabr holatiga 35 413 tani tashkil etdi, ulardan 35 203 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 43,4 foiz, sanoat – 15,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 9,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 6,9 foiz, qurilish – 6,4 foiz, tashish va saqlash – 2,7 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,6 foiz, axborot va aloqa – 2,0 foiz, boshqa turlari – 11,3 foiz.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024-yil yanvar-sentabr holatiga)


Mamlakat iqtisodiyoti "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2024-yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023-yilning mos davriga nisbatan 579 tadan 671 taga (o'sish 92 taga), axborot va aloqa – 150 tadan 292 taga (o'sish 142 taga) ko'paydi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024-yil 1-oktabr holatiga)


Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Samarqand shahrida (28,9 foiz), Samarqand (8,8 foiz), Urgut (7,6 foiz), Pstdarg'om (7,2 foiz) va Kattaqo'rg'on (4,9 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko‘p qismi Nurobod (15,1 foiz), Kattaqo‘rg‘on (12,0 foiz) va Samarqand (10,7 foiz) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Nurobod t.	377
Kattaqo‘rg‘on t.	298
Samarqand t.	267
Pastdarg‘om t.	255
Bulung‘ur t.	203
Urgut t.	140
Oqdaryo t.	134
Payariq t.	113
Paxtachi t.	109
Ishtixon t.	103
Qo‘shrabot t.	96
Narpay t.	93
Jomboy t.	91
Samarqand sh.	89
Toyloq t.	75
Kattaqo‘rg‘on sh.	41

Yillar kesimida soni (birlikda)



Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

2 322



141

Baliq ovlash va akvakultura

O‘rmonchilik va yog‘och tayorlash

21



(2024-yil 1-oktabr holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 13,0 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan. – 94,6 foizini ishlab chiqarish sanoati, 4,0 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,0 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,4 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Samarqand sh.	1 085
Urgut t.	757
Samarqand t.	562
Pastdarg'om t.	396
Ishtixon t.	299
Toyloq t.	284
Jomboy t.	259
Kattaqo'rg'on t.	259
Kattaqo'rg'on sh.	232
Oqdaryo t.	225
Payariq t.	202
Bulung'ur t.	198
Narpay t.	198
Paxtachi t.	171
Qo'shrabot t.	140
Nurobod t.	120

Yillar kesimida soni (birlikda)



5 099

Ishlab chiqarish sanoati



213

tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



54

Suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



21

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



(2024-yil 1-oktabr holatiga)


O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 58,1 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 23,0 foiz ulushni tashkil etdi.
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 18,9 foiz ulushni tashkil etdi;

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Samarqand sh.	764
Payariq t.	196
Pastdarg'om t.	171
Samarqand t.	155
Urgut t.	145
Oqdaryo t.	103
Toyloq t.	100
Kattaqo'rg'on sh.	95
Kattaqo'rg'on t.	95
Jomboy t.	83
Ishtixon t.	82
Narpay t.	63
Qo'shrabot t.	62
Bulung'ur t.	57
Paxtachi t.	55
Nurobod t.	44

Yillar kesimida soni (birlikda)



Bino va inshootlar qurish

1 319

522

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish

429

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 15 331 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 71,0 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 19,1 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 9,9 foiz ulushni tashkil etdi

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Samarqand sh.	4 176
Samarqand t.	1 399
Pastdarg'om t.	1 232
Urgut t.	1 044
Payariq t.	815
Ishtixon t.	784
Bulung'ur t.	752
Toyloq t.	734
Kattaqo'rg'on t.	695
Oqdaryo t.	694
Jomboy t.	648
Narpay t.	607
Kattaqo'rg'on sh.	529
Paxtachi t.	490
Qo'shrabot t.	469
Nurobod t.	306

Yillar kesimida soni (birlikda)



10 928

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

2 929

1 517

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2024-yil 1-oktabr holatiga 3 388 taga yetib, ularning 3 366 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 13,2 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 86,8 foiz ulushini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Samarqand sh.	1 332
Samarqand t.	270
Urgut t.	200
Pastdarg'om t.	187
Kattaqo'rg'on t.	165
Payariq t.	163
Toyloq t.	162
Ishtixon t.	136
Jomboy t.	130
Bulung'ur t.	114
Oqdaryo t.	113
Narpay t.	112
Kattaqo'rg'on sh.	109
Nurobod t.	77
Qo'shrabot t.	67
Paxtachi t.	51

Yillar kesimida soni (birlikda)



2 941

Oziq-ovqat va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar



Yashash bo'yicha
xizmatlar

447

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

2024-yil 1-oktabr holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining 70,5 foizini;

- axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 25,0 foizini;

- ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 4,5 foizini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Yillar kesimida soni (birlikda)

Samarqand sh.	322
Samarqand t.	61
Urgut t.	50
Payariq t.	48
Kattaqo'rg'on sh.	40
Oqdaryo t.	34
Pastdarg'om t.	33
Ishtixon t.	26
Bulung'ur t.	20
Kattaqo'rg'on t.	16
Toyloq t.	16
Jomboy t.	14
Qo'shrabot t.	10
Narpay t.	9
Nurobod t.	6
Paxtachi t.	5



 Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar	262	239	Aloqa 
 Noshirlik faoliyati	88	89	Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyati 
 Kino-videofilmlar,televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish	16	16	Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish 

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 937 tasi yoki 90,0 foizi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- ushbu sohadagi korxonalar sonining 97,5 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri keladi;




- yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 1,9 foizni tashkil etdi;

- yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,6 foizini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Samarqand sh.	429
Toyloq t.	66
Urgut t.	64
Samarqand t.	60
Ishtixon t.	51
Nurobod t.	51
Payariq t.	48
Pastdarg'om t.	47
Oqdaryo t.	41
Kattaqo'rg'on sh.	38
Jomboy t.	37
Bulung'ur t.	26
Kattaqo'rg'on t.	26
Narpay t.	21
Paxtachi t.	18
Qo'shrabot t.	17

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Samarqand sh.	364
Toyloq t.	97
Samarqand t.	87
Urgut t.	79
Pastdarg'om t.	54
Jomboy t.	46
Bulung'ur t.	38
Ishtixon t.	38
Oqdaryo t.	29
Kattaqo'rg'on sh.	28
Payariq t.	27
Narpay t.	24
Kattaqo'rg'on t.	19
Nurobod t.	19
Paxtachi t.	16
Qo'shrabot t.	11

2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ulushi jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 2,4 foizini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:


- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 66,1 foizini tashkil etdi;

- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 29,5 foizini;

- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 3,6 foizini;

- havo va suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 0,8 foizini tashkil etgan.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)

22 873

mas’uliyati cheklangan jamiyat

64,6

4 748

xususiy korxonalar

13,4

7 471

oilaviy korxonalar

21,1

24

aksiyadorlik jamiyati

0,1

297


boshqalar

0,8

(2024-yil yanvar-sentabr holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Samarqand sh.	1 127	Toyloq t.	158
Samarqand t.	669	Qo'shrabot t.	146
Bulung'ur t.	261	Payariq t.	137
Pastdarg'om t.	252	Kattaqo'rg'on sh.	126
Urgut t.	219	Ishtixon t.	117
Kattaqo'rg'on t.	206	Jomboy t.	110
Nurobod t.	203	Narpay t.	104
Oqdaryo t.	159	Paxtachi t.	86

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Amaldagi 35 413 ta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2024-yil 1-oktabr holatiga mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 22 873 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 41,7 foiz, sanoat – 14,0 foiz, qurilish – 8,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,1 foiz.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)


Samarqand sh.	7 746	Nurobod t.	943
Samarqand t.	2 085	Oqdaryo t.	937
Urgut t.	1 779	Toyloq t.	824
Pastdarg'om t.	1 330	Jomboy t.	804
Kattaqo'rg'on t.	1 016	Ishtixon t.	734
Payariq t.	1 015	Qo'shrabot t.	706
Bulung'ur t.	1 004	Paxtachi t.	531
Kattaqo'rg'on sh.	964	Narpay t.	455

(2024-yil yanvar-sentabr holatiga)


Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Yillar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)




Hududlar kesimida soni (birlikda)

Toyloq t.	66	Urgut t.	27
Samarqand t.	65	Kattaqo'rg'on sh.	24
Pastdarg'om t.	52	Jomboy t.	24
Samarqand sh.	48	Oqdaryo t.	14
Paxtachi t.	44	Bulung'ur t.	10
Narpay t.	40	Payariq t.	8
Kattaqo'rg'on t.	36	Nurobod t.	5
Ishtixon t.	34	Qo'shrabot t.	3


(2024-yil 1-oktabr holatiga)

2024-yil 1-oktabr holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan; Samarqand shahrida – 703 ta, Urgut tumanida – 527 ta va Ishtixon tumanida – 479 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan, savdo sohasida – 2 378 ta, sanoat – 682 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 432 ta va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida – 179 ta.

Yillar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Samarqand sh.	703
Urgut t.	527
Ishtixon t.	479
Narpay t.	433
Pastdarg'om t.	409
Toyloq t.	378
Paxtachi t.	308
Samarqand t.	246


Oqdaryo t.	242
Jomboy t.	212
Kattaqo'rg'on t.	201
Bulung'ur t.	178
Kattaqo'rg'on sh.	126
Nurobod t.	120
Qo'shrabot t.	93
Payariq t.	93

(2024-yil yanvar-sentabr holatiga)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Samarqand sh.	207	Jomboy t.	46
Pastdarg'om t.	130	Toyloq t.	45
Samarqand t.	101	Bulung'ur t.	44
Kattaqo'rg'on t.	100	Narpay t.	40
Urgut t.	62	Oqdaryo t.	36
Ishtixon t.	56	Kattaqo'rg'on sh.	21
Payariq t.	56	Qo'shrabot t.	15
Paxtachi t.	54	Nurobod t.	12

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 7 471 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 35,5 foizi, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 21,9 foizi, sanoat – 19,1 foizi, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 4,5 foizi, hududiy kesimda esa eng ko'pi Samarqand shahrida – 24,2 foizi, Samarqand tumanida – 10,7 foizi va Pastdarg'om tumanida – 10,5 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Samarqand sh.	1 808
Samarqand t.	801
Pastdarg'om t.	786
Payariq t.	589
Kattaqo'rg'on t.	492
Toyloq t.	454
Ishtixon t.	421
Jomboy t.	397

Urgut t.	388
Bulung'ur t.	341
Narpay t.	298
Oqdaryo t.	271
Paxtachi t.	150
Kattaqo'rg'on sh.	124
Qo'shrabot t.	101
Nurobod t.	50

(2024-yil yanvar-sentabr holatiga)

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.


Mavsumiy va ko'p yillik ekinlar yetishtirish, chorvachilik, ovchilik va dehqonchilik bu bo'limning asosiy yo'nalishlari bo'lib, fermer xo'jaliklarining ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari umumiy sonining 100,0 foizini tashkil etadi.



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Jomboy t.	10
Qo'shrabot t.	6
Payariq t.	2
Pastdarg'om t.	2
Oqdaryo t.	1
Bulung'ur t.	1
Kattaqo'rg'on t.	1
Narpay t.	1
Urgut t.	1


Yillar kesimida soni (birlikda)



(2024-yil 1-oktabr holatiga)

O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Urgut (13,6 foizi), Payariq (12,0 foizi) va Bulung'ur (9,9 foizi) tumanlariga to'g'ri keladi.



Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

(2024-yil yanvar-sentabr holatiga)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o‘shish sur‘ati 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda 148,3 foizni tashkil etdi.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Samarqand sh.	64
Samarqand t.	16
Pastdarg‘om t.	9
Qo‘shrabot t.	7
Jomboy t.	6
Kattaqo‘rg‘on t.	5
Toyloq t.	5
Ishtixon t.	4

Oqdaryo t.	3
Paxtachi t.	3
Urgut t.	3
Bulung‘ur t.	2
Nurobod t.	2

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 580 ta korxonadan 270 tasi qo'shma korxona va 310 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Samarqand sh.	276
Samarqand t.	44
Urgut t.	42
Pastdarg'om t.	32
Jomboy t.	31
Oqdaryo t.	27
Qo'shrabot t.	20
Bulung'ur t.	17

Ishtixon t.	17
Toyloq t.	15
Kattaqo'rg'on t.	13
Nurobod t.	13
Kattaqo'rg'on sh.	12
Payariq t.	10
Paxtachi t.	10
Narpay t.	1

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 4,1 foizga oshdi.

Yetakchi o'rinni 121 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 20,9 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Samarqand viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkiya (ulushi 16,7 foiz), Rossiya Federatsiyasi (ulushi 16,4 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 5,3 foiz) va Tojikiston (ulushi 3,3 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

(2024-yil 1-oktabr holatiga)



Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Samarqand shahriga 47,6 foiz, tumanlar orasida esa Samarqand – 7,6 foiz, Urgut – 7,2 foiz va Pastdarg'omga – 5,5 foiz to'g'ri keladi.

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

qo'shma korxonalar

xorijiy korxonalar


107	Samarqand sh.	169	1	Narpay t.	-
9	Kattaqo'rg'on sh.	3	6	Payariq t.	4
10	Oqdaryo t.	17	15	Pastdarg'om t.	17
6	Bulung'ur t.	11	4	Paxtachi t.	6
19	Jomboy t.	12	21	Samarqand t.	23
9	Ishtixon t.	8	7	Nurobod t.	6
5	Kattaqo'rg'on t.	8	9	Urgut t.	33
7	Qo'shrabot t.	13	6	Tayloq t.	9

(2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Qo'shma korxonalar



Xorijiy korxonalar



31 Boshqa turlar 36

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida jadal o'sishlar kuzatilmoqda hamda xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya, biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liqdir.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016-yil 24-avgustdagi** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2024-yil 1-oktabr** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi
STATISTIKA AGENTLIGI

Orqali qutqat

Korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

STIR kodini kiriting

Axborot beruvchi tomonidan tasdiqlanishi kerak bo'lgan ma'lumot

ZK

Rasmiy kodni kiriting

Qutqat

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Agentligi
2002 yil



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining
www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida,
so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



PRESS-RELIZ

